

BOSHLANG`ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA DARSINI OLIB BORILISHI.

Namangan davlat pedagogika institute
Aniq fanlar kafedrası katta o`qituvchisi Sh.Tursunova
Namangan davlat pedagogika instituti
Texnologiya ta`lim yo`nalishi talabasi
Quchqorboyeva Ruxshona Sherzod qizi

Annotatsiya: Boshlang`ich sinflarda texnologiyaga tayyorlash dasturi bolalarni har tomonlama kamol toptirishga aqliy va jismoniy, ahloqiy va estetik, iqtisodiy va ekologik bilimlarini shakllantirishga va tarbiyalashga qaratilgan

Kalit so`zlar: Texnologiya, texnika, shaxs, ta`lim, tarbiya, ko`nikma, malaka, tajriba, modellashtirish,

Boshlang`ich sinflarda texnologiyaga tayyorlash dasturi bolalarni har tomonlama kamol toptirishga aqliy va jismoniy, ahloqiy va estetik, iqtisodiy va ekologik bilimlarini shakllantirishga va tarbiyalashga qaratilgan bo`lib o`z oldiga qo`yidagi maqsadlarni qo`yadi.

a) Bolaning Texnologiya tajribasini ularning kishilarning ishlab chiqarish faoliyati to`g`risidagi bilimlarni kengaytirish, Texnologiyasevarlik, Texnologiyaga va Texnologiya kishilariga munosib munosabat ruhida tarbiyalash;

b) Texnologiya malakasi, Texnologiya madaniyati asoslarini, o`z ishi va o`rtoqlari ishini rejalashtirish va tashkil qilish malakalarini rivojlantirish.

Dasturda turtta asosiy ish turlari bor.

1. Qog`oz va karton bilan ishlash.
2. Turli materiallar bilan ishlash.
3. Gazlama (tikish va bichish) bilan ishlash.
4. Texnikaga modellashtirish.
5. Qishloq xo`jaligi Texnologiyasi.

O`z-o`ziga xizmat ko`rsatish bo`limi o`zlarining kiyim-kechaklariga va turar joylariga qarashni, nonushta, tushlik va kechki ovqat uchun dasturxon tuzashni o`z ichiga oladi. Bu darslarni yil boshida o`tkazish tavsiya etiladi, bundan maqsad o`qituvchilarni va ota-onalarni yil davomida bolalarning olgan bilimlarini qanday qo`llayotganliklarini va sinfda navbatchilik qilganda o`z-o`ziga xizmat ko`rsatish, uyda ota-onalariga yordam berishlariga imkon berishdir.

Texnikaga oid texnologiyaning quyidagi turlarini: qog`oz va karton bilan ishlash, mato bilan ishlash, turli xil materiallardan plastilin, tabiiy va neorganik materiallar somon, quritilgan barglar, patlar, chig`onoq, loy, qum, tsement, yog`och, yumshoq sim, tunuka va boshqa materiallar bilan ishlashni o`z ichiga oladi.

Bolalarga buyumlarni yasash tartibi haqida, ya`ni yig`ish, ishlov berish to`g`risida, ishlatib ko`rish xato va kamchiliklarni yo`qotish haqida ish o`rnini

tashkil qilish va boshqalar to'g'risida tasavvur hosil bo'ladi. Bu elementlarning barchasi keyinchalik modellar va texnikaviy o'yinchoqlar tayyorlashda qo'llaniladi, umumlashtiriladi, bolalarning ijodiy fikrini o'stiradi, To'plangan texnologik tajribasini tevarak-atrofdagi texnika bilan bog'lashlariga yordam beradi.

Qishloq xo'jaligi texnologiyai darslarda o'quvchilar sinfdagi jonli tabiat burchagi va maktab tajriba hovlisida o'simliklarni o'stirishga, ko'paytirishga va parvarishlashga oid ishlar bilan shug'ullanadilar.

Texnologiya dasturi talablari quyidagilarni o'z ichiga oladi.

1. Buyumlarni kundalik uchun zarurligi.
2. Narsa-buyum yoki ishni bajarish jarayonida bolalarga berish mumkin bo'lgan dasturda ko'rsatilgan bilim va malakalarining mazmundorligi.
3. Barcha o'quvchilarni darsda band qilish imkoniyati.

Texnologiyaning yangi dasturlari, metodlari va tashkiliy shakllari asosida ishlab chiqiladi. Texnologiya dasturlarida Texnologiya madaniyatining malaka va ko'nikmalari aks ettirilgan bo'lib, unga qarab maktab o'quvchisi, o'qituvchisi va maktab faoliyatiga baho beriladi. O'qituvchi o'quvchilarning u yoki bu xususiyatlarini, Texnologiya madaniyatining tarkibiy qismi birligini hisobga olganda dastur tuzib chiqadi.

Texnologiya ta'lim yo'nalishlaridan birinchisi bolada va o'smirida inson texnologiya haqida va uning texnologiyaining mahsuli yaratilgan buyumlar to'g'risida, ishlab chiqarish muhiti, materiallarni ishlab chiqarish texnologiyasi, moddiy ishlab chiqarish iqtisodiyoti haqida tasavvurlar hosil qilishga har tomondan yondashishni talab qiladi.

Texnologiya fani yo'nalishining ikkinchisi, o'quvchilarda oilada va turmushdagi vazifalarni taqsimlash, ularni bajarish to'g'risidagi tasvurlarni shakllantirish.

Uchunchisi esa hozirgi zamon o'quvchisi tabiatga ekologik munosabatda bo'lishni shakllantirish, uni qishloq xo'jaligi sohasidagi malaka va ko'nikmalari bilan qurollantirish kerak.

Texnologiya fanini o'tish jarayonida hosil qilingan bilimlar, malakalar va ko'nikmalar maqsadsiz emas, balki insonning asosiy qobiliyati – texnologiyaga bo'lgan qobiliyatini rivojlantirish vositasi hisoblanadi.

Texnologiya darsining maqsadi – shaxsning turmush tarziga, texnologiya madaniyatiga qaratilgan barqaror yo'l yo'riqni qaror toptirish, ijodiy faoliyat qilishga, amaliy, ahloqiy va ruhiy tayyorgarlikni amalga oshirish, o'quvchilarni xalq xo'jaligidagi muvoffaqiyatli faoliyatida zarur bo'lgan ijodiy qobiliyatlarni, aqliy, jismoniy fazilatlarni rivojlantirishdir.

Texnologiya o'zining bosqichlarida bolalar, o'smirlar va yoshlarning yoshi, funktsional imkoniyatlarining o'ziga xosligi, ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy mavqiega muvofiq ravishda ko'p tomonlama yo'nalishga ega bo'lishi lozim.

Texnologiya darslari bolalarga turli xil amaliy va nazariy bilimlarni o'rgatadi. Bu darslar, asosan, bolalarning kreativ fikrlashini rivojlantirish, muammolarni hal qilish, va texnologiyalarni kundalik hayotda qo'llay olishlariga

yordam beradi. Quyida texnologiya darslarida bolalarga o'rgatiladigan asosiy bilimlar:

1. **Texnologiyalarning asosiy tushunchalari:**

Texnologiya nima?: Texnologiyaning tarixi, ahamiyati va uning turli sohalarda qo'llanilishi haqida bilim.

Ishlab chiqarish jarayonlari: Mahsulotlarni yaratish, ishlab chiqarish va ularga ishlov berish jarayonlari.

Dasturlash asoslari: Bolalar oddiy dasturlash tillari va algoritmlar bilan tanishadilar.

Axborot texnologiyalari: Kompyuterlar, internet, dasturlar, va ularning bizning hayotimizdagi o'rni haqida bilimlar.

2. **Texnologiyalarning turlari:**

Kompyuter texnologiyalari: Kompyuterlar va ularning qismlari, operatsion tizimlar, dasturlar va ularni ishlatish.

Elektronika: Elektron qurilmalar, sensorlar, batareyalar va ular bilan ishlash.

Robototexnika: Robotlarning ishlash prinsiplari va dasturlash.

3. **Ijodiy ishlanmalar:**

Modellashtirish va dizayn: 3D modellashtirish, kompyuterda dizayn yaratish, va grafik dizayn.

Prototiplar yaratish: Fikrlash va g'oyalarni realizatsiya qilish uchun prototiplar yaratish.

Quyidagi materiallar bilan ishlash: Yog'och, plastmassa, metall va boshqa materiallar yordamida oddiy buyumlarni yasash.

4. **Muammolarni hal qilish:**

Kreativ fikrlash va yechim topish: Texnologik muammolarni hal qilish uchun ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.

Kodlash va algoritmlar: Bolalarga dasturlashni o'rgatishda muammolarni kodlash va yechimlarni izlash.

5. **Texnologiyalarni xavfsiz ishlatish:**

Kiberxavfsizlik: Internetda xavfsiz bo'lish, parollarni saqlash, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish.

Texnologik qurilmalar bilan xavfsiz ishlash: Qurilmalarni xavfsiz va to'g'ri ishlatish, texnologik vositalardan xatarli holatlarda foydalanmaslik.

6. **Atrof-muhitni himoya qilish va texnologiyalar:**

Barqaror texnologiyalar: Energiya tejamkor texnologiyalar, qayta ishlanadigan materiallar va ekologik toza texnologiyalar.

Texnologiya va tabiat: Texnologiyaning atrof-muhitga ta'siri, yashil texnologiyalar va ekologik muammolarni hal qilishda texnologiyaning roli.

7. **Texnologiyalar va jamiyat:**

Innovatsiyalar: Yangi texnologik g'oyalar, ularning jamiyatga ta'siri va iqtisodiyotda o'rni.

Texnologiya va ijtimoiy mas'uliyat: Texnologiyaning ijtimoiy hayotga ta'siri va muammolarni hal qilishda texnologiyaning o'rni.

Texnologiya darslari bolalar uchun nafaqat texnik bilimlarni o'rgatadi, balki ularning ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga ham yordam beradi. Bu bilimlar ular kelajakda turli sohalarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR.

1. R.A.Mavlonova ,O.T.To`rayeva , K.M.Holiqberdiyev “Pedagogika” T., “O`qituvchi” 1998- yil
2. X.Sanaqulov ,M.Haydarov “Boshlang`ich sinflarda qog`ozdan amaliy ishlar” 1996- yil
3. Турсунова Ш., Охунжонова М. ПЕДАГОГИК ВА АХБОРОТ КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ТАДБИҚ ЭТИШ ОРҚАЛИ ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 4. – №. 1. – С. 456-459.
4. Турсунова Ш. Б. Педагогик компетентлик ва уни самарали ривожлантириш //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 377-381.
5. Турсунова, Ш. Б. БЎЛАЖАК ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ ПЕДАГОГИК ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШДА ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ. *MATERIALLARI TO`PLAMI*, 109.
6. Абдуллаев С. Х., Турсунова Ш. Б. Технологик таълим сифатини оширишда бўлажак ўқитувчи касбий компетенциясининг ўрни //Ижодкор ўқитувчи. Тошкент. – 2021. – С. 347-355.
7. Vorobyov A.Sh. “Konstruktorlik va modelleshtirish” T., “O`qituvchi”1989- yil
8. N.Gushkin. V.R.Xiltunin. “Texnologiya eng yaxshi tarbiyachi”. T.1988y.
- 7..Mavlonova.R.A. “Boshlang`ich sinf Texnologiya darsliklari”. T. 1996y.